



THE ORIGIN OF HISTORICAL PLACE NAMES, THEIR CAUSES, CONSEQUENCES, AND HISTORICAL SIGNIFICANCE

Farrukh Soibovich Saidov

Associate Professor, PhD in History

Department of Social Sciences and Humanities

International Innovation University

E-mail: farruxsaidov1982@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Toponymics, social semantics of space, geolinguistics, cultural memory, ethnotonym, hydronym, linguistic archaeology, historical justice.

Received: 19.06.26

Accepted: 20.06.26

Published: 21.06.26

Abstract: This scientific article investigates the regularities of the formation of toponyms within the context of geopolitical space civilization and the historical memory of society based on an interdisciplinary synthesis. The socio-economic, linguo-cultural, landscape, and ethnic determinism (factors) in the emergence of place names are systematically analyzed. Using the example of stratigraphic layers (Sogdian, Ancient Turkic, Persian, and Arabic elements) in the sub-toponymic system of Central Asia, the functional roles of toponyms as "silent and documentary witnesses" are demonstrated. Furthermore, the article explores the transformation of cultural memory resulting from toponymic politics (renaming), the ideological deconstruction of historical space, and its consequences on the socio-cultural identification of society.

TARIXIY JOY NOMLARINING KELIB CHIQISHI, SABABLARI, OQIBATLARI VA ULARNING TARIXIY MOHIYATI

Farrux Soibovich Saidov

Xalqaro innovatsion universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

farruxsaidov1982@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Toponimika, makon ijtimoiy semantikasi, geolingvistika, madaniy xotira, etnotoponim, gidronim, lingvistik arxeologiya, tarixiy adolat.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada geosiyosiy makon sivilizatsiyasi va jamiyatning tarixiy xotirasi kontekstida toponimlarning shakllanish qonuniyatlari fanlararo sintez asosida tadqiq etilgan. Joy nomlarining yuzaga kelishidagi ijtimoiy-iqtisodiy, lingvomadaniy, landshaft va etnik determinizm (omillar) tizimli ravishda tahlil qilingan. Markaziy Osiyo subtomonimik tizimidagi stratiografik qatlamlar (sugʻdiy, qadimgi turkiy, forsiy va arabiy elementlar) misolida toponimlarning "tilsiz va hujjatli guvoh" sifatidagi funksional vazifalari koʻrsatib berilgan. Shuningdek, maqolada toponimik siyosat (renaming) ortidan kelib chiquvchi madaniy xotira transformatsiyasi, tarixiy makonning mafkuraviy dekonstruksiyasi va uning jamiyat sotsiomadaniy identifikatsiyasiga koʻrsatadigan oqibatlarini ilmiy asoslangan.

ПРОИСХОЖДЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ НАЗВАНИЙ, ПРИЧИНЫ ИХ ВОЗНИКНОВЕНИЯ, ПОСЛЕДСТВИЯ И ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

Фаррух Соибович Саидов

Доцент, доктор философии (PhD) по историческим наукам

Кафедра социально-гуманитарных наук

Международный инновационный университет

E-mail: farruxsaidov1982@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Топонимика, социальная семантика пространства, геолингвистика, культурная память, этнотопоним, гидроним, лингвистическая археология, историческая справедливость.

Аннотация: В данной научной статье на основе междисциплинарного синтеза исследуются закономерности формирования топонимов в контексте цивилизации геополитического пространства и исторической памяти общества. Систематически анализируется социально-экономический, лингвокультурный, ландшафтный и этнический детерминизм (факторы) возникновения названий мест. На примере стратиграфических пластов (согдийских, древнетюркских, персидских и арабских элементов) в субтопонимической системе Центральной Азии продемонстрированы функциональные роли топонимов как «безмолвных и документальных свидетелей». Также в статье исследуются

трансформация культурной памяти в результате топонимической политики (переименования), идеологическая деконструкция исторического пространства и ее последствия для социокультурной идентификации общества.

Kirish. Insoniyat o'zi yashab turgan geografik muhitni o'zlashtirar ekan, ob'ektlarni nomlash orqali makonni ijtimoiylashtiradi va unga madaniy shakl beradi. Geografik nomlar shunchaki kartografik xaritalardagi navigatsiya vositasi emas, balki muayyan xalqning o'sha hududdagi asriy o'tmishi, sivilizatsiyaviy kashfiyotlari, migratsion harakatlari va lingvistik evolyutsiyasini o'zida muhrlagan unikal mental arxivdir. Shuning uchun ham zamonaviy manbashunoslikda toponimika "til arxeologiyasi" va "yerning yozma xotirasi" deb e'tirof etiladi. Joy nomlari o'zining semantik tuzilishida yozma manbalar tubdan sukut saqlagan yoki arxeologik topilmalar yetarli bo'lmagan qorong'u davrlarni yoritishga qodir bo'lgan birlamchi hujjatli material hisoblanadi [1, 19-b.].

Uzoq davrlar mobaynida toponimika fani ko'proq tavsifiy-lingvistik xarakterga ega bo'lib, joy nomlarining faqat til qoidalari doirasidagi etimologiyasini (kelib chiqishini) o'rganish bilan cheklanib keldi. Ayniqsa, o'tgan asrdagi sovet tarixshunosligi va toponimik amaliyotida sinfiy-mafkuraviy yondashuv ustunlik qilib, hududlarning tub nomlari siyosiy konyuktura qurboniga aylantirildi va bu geografik makonning g'oyaviy dekonstruksiyasiga olib keldi. Bugungi kunda sivilizatsiyalar globallashuvi hamda madaniy assimilyatsiyalar kuchaygan bir sharoitda, tarixiy toponimlarning genezisini, ularni yuzaga keltirgan sabab-oqibat zanjirini hamda jamiyat hayotidagi sotsiomadaniy, falsafiy-tarixiy mohiyatini fundamental darajada o'rganish milliy o'zlikni asrash va tarixiy makon daxlsizligini ta'minlash nuqtai nazaridan g'oyat dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [2, 54-b.].

Metodlar. Tadqiqot ishining metodologik asosi sifatida tizimlilik, tarixiy-izchillik, fanlararo sintez va madaniy-sivilizatsiyaviy yondashuv prinsiplari tanlab olindi. Geografik ob'ektlar nomlarini tahlil qilishda geolingvistik stratigrafiya (til qatlamlarini ajratish) metodi yetakchi o'rin tutdi. Markaziy Osiyo hududidagi toponimik qatlamlarni aniqlash maqsadida qadimgi sug'diy, xorazmiy, o'rta asrlar turkiy va forsiy yozma manbalari matnshunoslik chig'irig'idan o'tkazildi. Xususan, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asaridagi etnotoponimik ma'lumotlar hamda o'rta asrlar arab-fors geografiya maktabi vakillarining (Ibn Xordadbeh, Al-Muqaddasiy, Yoqut al-Hamaviy) asarlaridagi gidronimik ko'rsatkichlar solishtirma-tanqidiy tahlil qilindi [3, 88-b.].

Nomlarning o'zgarishi (toponimik siyosat) jarayonlarini baholashda retrospektiv va qiyosiy-tarixiy tahlil usullari uyg'unlikda qo'llanildi. Bu esa ma'lum bir davrdagi siyosiy rejim transformatsiyasining geografik xaritada ta'sirini ob'ektiv baholash imkonini berdi. Shuningdek, toponimlarni tasniflashda ularning nominal tabiati, etnik genetikasi va relyef arxitekturasini bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi tipologik guruhlash metodidan samarali foydalanildi.

Natijalar. Tarixiy joy nomlarining semantik qatlamlari, ularning sotsial-geografik tabiati hamda strukturaviy dinamikasi tahlil qilinganda, quyidagi fundamental ilmiy natijalar shakllantirildi:

1. Toponimik tizimning yuzaga kelish sabablari va genetik determinatsiyasi. Tarixiy toponimlar inson va tabiat, jamiyat va makon o'rtasidagi dialektik munosabatlarning qonuniy mahsuli bo'lib, ularning shakllanish sabablari quyidagi to'rtta asosiy tizimga bo'linadi:

Landshaft-ekologik (tabiiy) omil: Insoniyat dastlabki bosqichda geografik muhitni relying ko'rinishi, gidrologik tarmoqlari va flora-faunasi bo'yicha differensiyalagan. Ayniqsa, suv manbalari (gidronimlar) eng barqaror tarixiy qatlamni hosil qiladi. Masalan, Zarafshon (forsiy — "oltin sochuvchi daryo") va Amudaryo (Omu / Amuye shahri yaqinidan oquvchi daryo) o'zida sivilizatsiyaning shakllanish arealini ko'rsatadi. Oronimlar esa relyefning fizik xususiyatini ifodalaydi: Pomir (sak-pahlaviycha — "baland tog'lar" yoki "quyosh tomi") yoki Hisor (arabcha — "qal'a", "tog'lar bilan o'ralgan mustahkam joy") [4, 102-b.].

Etnogenetik (etnotoponimik) omil: Muayyan hududda o'troqlashgan yoki ko'chib yurgan qabila va urug'larning nomlari vaqt o'tishi bilan makon nomiga aylanadi. O'zbek sotsiogenezida qatnashgan 92 urug'ning etnik geografiyasi toponimlarda yaqqol muhrlangan. Masalan, Ming, Yuz, Qirq, Jaloir, Nayman, barlos, Saroy, Mang'it, Qo'ng'iro't kabi nomlar bugungi kunda ham o'nlab tuman, qishloq va mahallalarning rasmiy nomi hisoblanib, ular tarixiy demografiya va qabilalar joylashuv xaritasini aniq ko'rsatib beruvchi birlamchi manba hisoblanadi.

Antropotsentrik va Ijtimoiy-siyosiy omil: Davlat arboblari, sulola asoschilari, diniy avliyolar yoki tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq oikonimlar (aholi punktlari nomlari). Sultonobod, Amirbuloq, Xoja Ahror kabi nomlar hududning siyosiy-ijtimoiy boshqaruvi va ma'naviy arxitekturasini aks ettiradi [5, 41-b.].

Sotsioekonomik va funksional-kasbiy omil: Aholining xo'jalik yuritish turi, hunarmandchilik sohasi hamda savdo munosabatlari toponimik landshaftni belgilagan. Qadimiy shaharlar (Buxoro, Samarqand, Xiva) topografiyasidagi Zargaron (zargarlar mahallasi), Suzangaron (igna tikuvchilar), Attolar (giyoh va atir sotuvchilar), Kovushlar bozorlari kabi nomlar o'rta asrlar iqtisodiy munosabatlari va ijtimoiy mehnat taqsimotining eng ishonchli tarixiy guvohlaridir.

2. Toponimik o'zgarishlar (Renaming) va ularning ijtimoiy-tarixiy oqibatlari. Siyosiy tuzumlar va ideologiyalar almashishi har doim makonni qayta nomlash siyosati orqali sivilizatsiyaviy kodlarni o'zgartirishga harakat qilgan. Ushbu jarayon tarixiy oqibatlar nuqtai nazaridan ikki xil xarakterga ega:

Toponimik siyosat / Siyosiy bosqichlar:

1. Arab istilosi: Mahalliy sug'diy-baqtriy nomlarni islomiy-arabiy | kognisiyaga moslash (Masalan: Neseif -> Qarshi/Nasaf);

2. Rossiya imperiyasi va Sovet davri: Milliy-tarixiy toponimlarni | radikal yo'q qilish, ideologik nomlar (Lenin, Kalinin) kiritish. | (Oqibat: Tarixiy makon dekontekstualizatsiyasi va milliy xotira uzilishi);

3. Mustaqillik davri: Tarixiy toponimlarni re-identifikasiya qilish va milliy toponimik adolatni tiklash jarayoni.

Toponimlarni mafkuraviy maqsadlarda o'zgartirishning eng og'ir oqibati — “madaniy amneziya” (xotirani yo'qotish) bo'lib, bunda yozma manbalardagi tarixiy voqea bilan real geografik ob'ekt o'rtasidagi kognitiv aloqa butunlay uziladi, bu esa tarix fani va arxeologiyada sun'iy chalkashliklarni yuzaga keltiradi [6, 73-b.].

Muhokama (Discussion). Joy nomlarini chuqur manbashunoslik va geolingvistik süzgichdan o'tkazish jarayonida Markaziy Osiyo toponimik makonining ko'p qatlamli (stratigrafik) tabiati aniqlandi. Ushbu makonni o'rganish sivilizatsiya tarixini xronologik tartibda tiklash imkonini beradi.

Toponimik qatlam Davriy chegarasi Etimologik va morfologik indikatorlari
Tarixiy-madaniy mohiyati. Qadimgi Avtohton (Sug'diy, Baqtriy, Xorazmiy)
Islomgacha bo'lgan davr (V-VIII asrgacha) "-kat", "-kent", "-mush", "-tan" (Masalan: Toshkent, Vobkent, Romitan, Kesh) Shaharozlik sivilizatsiyasining qadimiyligi va ilk o'troq madaniyat ildizlarini isbotlaydi.

Klassik Turkiy Ilk va rivojlangan o'rta asrlar (IX-XV asrlar) "-quduq", "-buloq", "-ko'l", "-tosh" (Masalan: Uchquduq, Boysun, Qarshi, Qo'qon) Etnik dinamika, chorvachilik va dehqonchilik sintezi, ko'chmanchi va o'troq elatlar integratsiyasi.

Fors-tojik tili ta'siri Doimiy tarixiy qatlam "-zor", "-kor", "-obod", "-guzar" (Masalan: Guliston, Dehqonobod, Lalazor) Voha dehqonchilik madaniyati, shahar iqtisodiyoti va xalqaro madaniy aloqalar infratuzilmasi.

Muhokama markazida turgan eng muhim masala shundaki, tarixiy toponimlar shunchaki lingvistik birlik emas, balki hududiy daxlsizlikning yuridik-hujjatli isbotidir. Agarda muayyan hududdagi joy nomlarining etimologik ildizlari tubdan turkiy yoki sug'diy qatlamga mansub

ekanligi isbotlansa, bu o'sha hududda avtoxton (tub joy) aholining ming yillar davomida uzluksiz yashab kelganligini ko'rsatuvchi eng rad etib bo'lmaz tarixiy-huquqiy dalilga aylanadi [7, 119-b.].

Shuningdek, toponimlarni asrash va ularni ilmiy rekonstruksiya qilish geografiq xaritalarning milliyiligini ta'minlashda bosh mezon sanaladi. Joy nomlarini ilmiy asoslarsiz, shunchaki estetik yoki zamonaviy ohangga moslab o'zgartirish (masalan, qadimgi Qo'rg'ontepa yoki Eski qishloq kabi nomlarni asossiz ravishda Yashillik yoki Nurafshon deb yangilash) geografik makonning tarixiy qiymatini nolga tushiradi. Bunday yondashuv kelgusi avlodni o'z ajdodlari yaratgan topografik sivilizatsiyadan uzib qo'yadi. Shu bois, milliy toponimik siyosat tildan ko'ra ko'proq tarixiy manbashunoslik qonuniyatlariga tayanmog'i lozim.

Xulosa. Tarixiy joy nomlarining yuzaga kelish qonuniyatlari, ularning etimologik tizimi va jamiyat sotsial hayotidagi sabab-oqibatlarini fanlararo tahlil qilish natijasida quyidagi konseptual xulosalar shakllantirildi:

Birinchidan, toponimlar insoniyat madaniy merosining eng barqaror va ishonchli qismi bo'lib, ular o'zida sivilizatsiyalar xronologiyasi, xalqlarning etnogenezi hamda hududiy o'zlikni saqlab kelayotgan unikal moddiy-ma'naviy manba hisoblanadi.

Ikkinchidan, geografik nomlarning shakllanishida tabiiy va geografik omillar dastlabki fundament vazifasini o'tagan bo'lsa, keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va etnik migratsiyalar toponimiyaning ko'p qatlamli sotsiomadaniy tizimga aylanishini ta'minlagan.

Uchinchidan, toponimlarni siyosiy, mafkuraviy yoki g'oyaviy sabablar ortidan sun'iy ravishda o'zgartirish geografik makonning tarixiy xotirasini dekonstruksiya qiladi va o'tmish sivilizatsiyalar bilan bog'lovchi ilmiy-manbaviy zanjirni uzib yuboradi.

To'rtinchidan, tarixiy joy nomlarini asrash, ularning tub ma'nolarini ilmiy prinsiplar va manbalar asosida tiklash nafaqat tarixiy adolatni qaror toptirish, balki milliy davlatchilik tarixi va hududiy barqarorlikni ilmiy jihatdan himoya qilishning strategik omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qorayev S. Geografik nomlar ma'nosi va kelib chiqishi. – Toshkent: O'zbekiston, 1978. – 175 b.
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988. – 288 b.
3. Yo'ldoshev Sh. Sharq Renessansi davri manbashunosligi va metodologiyasi masalalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2011. – 195 b.
4. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha etimologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1977. – 140 b.

5. Qorayev S. Toponimika (O'quv qo'llanma). – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. – 240 b.
6. Oxunov J. Joy nomlari va tarix (Farg'ona vodiysi toponimlari asosida). – Toshkent: Fan, 1994. – 150 b.
7. To'ychiyev U. O'zbek sotsiotoponimiyasi masalalari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012. – 180 b.
8. Murzayev E.M. Ocherki toponimiki. – Moskva: Misl, 1974. – 382 s.
9. Bartold V.V. K istorii geograficheskix nazvaniy Turkestana. Sochineniya. Tom II. Ch. 1. – Moskva: Nauka, 1964. – 540 s.
10. Serebrennikov B.A. Metodi izucheniya toponimicheskix plastov. – Moskva: Nauka, 1972. – 210 s.